

KAMSITISH NIMA?



1. Bu rasmda nima tasvirlangan? Nima deb o'ylaysiz?
2. Hayotda ham shunday holatlarni ko'rganmisiz?
3. Nima uchun bunday holatlar sodir bo'ladi?



Kamsitish, ajratish – jamiyatdagi muammolardan biri bo'lib, millionlab insonlarning huquqlari poymol bo'lishiga olib keladi.

Butun insoniyat tarixida kamsitishlar bo'lib kelgan. Hatto bugungi kunda ham, bu illatni bartaraf qilishga qancha harakat qilmaylik, kamsitish bilan bog'liq muammolar uchrab turadi.

Kamsitish nima uchun paydo bo'ladi? Chunki inson tabiatida "o'zimiznikilar" va "begonalar" deb ajratishga moyillik bor. Agar "o'zimiznikilar" bo'lsa, yordam beramiz, yonini olamiz. "Begonalar" bo'lsa, ularga yomon ko'z bilan qarashimiz mumkin. Shuning uchun ba'zan odamlar o'ziga o'xshamaganlarga bosim o'tkazishga harakat qiladilar. Afsuski, bunday munosabat hatto maktabda, sinfda ham uchrab turadi.



Kamsitish huquqlarni poymol qilish, insonlarning ma'lum bir toifasiga nisbatan ko'r-ko'rona yomon munosabatda bo'lishdir.

Masalan, ba'zi odamlarni terisining rangi, jinsi, yoshi, millati, dini yoki tili boshqacha bo'lgani uchun yomon ko'rishadi, yakkalab qo'yishadi, chetga surishadi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan, nogiron odamlar bunday kamsitish, odam ajratishdan juda qattiq ozor chekadi.

Kamsitish, yomon ko'rish va odamlarning o'zaro tortishuvi boshqa-boshqa narsalardir. Bularning farqini ajrata olish kerak.

Kamsitishning asosiy belgilari:

- biror tashqi belgisi uchun odamga ko'r-ko'rona yomon munosabatda bo'lish;
- bir odamni o'zidan past sanab, uni haqoratlash, xo'rlash;
- birovlarining madaniyati, dini, an'analari, tushunchalariga oshkora nafrat bilan qarash;
- o'zidan boshqacha odamlardan o'zini ustun bilish.



Quyidagi gaplarni o'qib, sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

Qaysi gapda kamsitish belgilari bor? Qaysi gapda bolalar o'rtasidagi tortishuv belgilari bor?

- Bola o'rtoqlaridan xafa bo'lib, ular bilan o'ynashga bormadi.
- Maktab o'quvchisi bog'cha bolalarini masxara qilyapti.
- Qiz o'g'il bola bilan bir partada o'tirishni xohlamayapti.
- U imkoniyati cheklangan bolalarning ustidan kulyapti.
- Bola sinfdoshinikiga mehmonga borishdan bosh tortdi.
- Ular "O'g'il bolalar qiz bolalardan aqlliyoq", dedilar.
- Qizchaning maktabga borgisi kelmeyapti, chunki sinfdoshlari doim uni masxara qilishar ekan.



Qanday xislatlar insonga kamsitish belgilarini sezishga va unga qarshi turishga yordam berishini o'ylab ko'ring va yozing.



Rasmlarga qarang va gaplarni o'qing. Bu voqealarda kamsitish belgilari bormi? Sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling. Kimning huquqlari poymol qilinyapti? Kamsitish bo'lmاسligi uchun nima qilish kerak?





Tengdoshlarimiz orasida, sinfda, maktabda, uyda kamsitishlar bo'lmashligi uchun nima qilish kerak? Biz bunga qanday hissa qo'sha olamiz? O'ylab ko'ring.